

ResearchBib Impact Factor: 10.57 / 2024
SJIF-2023: 3.825, 2024: 5.333



TECHNICAL SCIENCE **RESEARCH** IN UZBEKISTAN

Research Science and
Innovation House

OUR INDEXING



ISSN: 2992-9148 <http://universalpublishings.com>

ResearchBib Impact Factor: 10.57/ 2024
SJIF-2023: 3.825, 2024: 5.333



TECHNICAL SCIENCE **RESEARCH** IN UZBEKISTAN



Research Science and
Innovation House

VOLUME 3 **ISSUE 03**

MARCH 31, 2025

editor@universalpublishings.com

<http://universalpublishings.com>

«TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy
jurnali: 31.03.2025-yil.

Ushbu to'plamda «TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN
UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy jurnali 2025-yil 3-soni 3-qismiga qabul qilingan
maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib,
Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus,
Zenodo, Open Aire, Google Scholar xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya
etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida
rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar,
doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy
xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi
raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar
to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



Research Science and
Innovation House

“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Eshkarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Bosh muharrir, Eshkarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Roumyana Pancheva, Janubiy Kaliforniya universiteti

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Choriyevich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Falsafiy fan muharriri Floris Rulofsen, Amsterdam universiteti

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti dekani, texnika fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Maribel Romero, Konstanz universiteti

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xo‘jamberdiyev Ikromovich – Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Filologiya fanlari muharriri Yael Sharvit, Kaliforniya universiteti, Los-Anjeles

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, professor Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Benjamin Spector, National de la Recherche Scientifique markazi

Iqtisod fanlari muharriri, Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Yasutada Sudo, London Universitet kolleji

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, ijtimoiy va gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Zoltan Gendler Szabo, Yel universiteti

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdukarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, tibbiyot fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston

Falsafa va tilshunoslik muharriri Aleksis Uellvud, Janubiy Kaliforniya universiteti

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali., biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Faslafa fanlari muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jurayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

Texnika fanlari muharriri Hasan Soyibnazarovich Beknazarov Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, texnika fanlari doktori, professor.

Texnika fanlari muharriri Hamroqul. A.Ravshanov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, texnika fanlari doktori.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING LIDERLIK
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRUKTURAVIY-MAZMUNLI
MODELI**

Soatova Shoxista Abdumusayevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning strukturaviy-mazmunli modeli haqida.

Kalit so'zlar: lider, talaba, innovatsiya, component, kompetensiya, daraja, bosqich, dastur, model, kommunikativlik, obraz, empatiya, stress, optimizm.

Аннотация. В статье рассматривается структурно-содержательная модель развития лидерских качеств у студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: лидер, студент, инновация, компонент, компетентность, уровень, этап, программа, модель, коммуникабельность, имидж, эмпатия, стресс, оптимизм.

Abstract: The article examines the structural and content model of development of leadership qualities in students of higher educational institutions.

Keywords: leader, student, innovation, component, competence, level, stage, program, model, communication skills, image, empathy, stress, optimism.

Bugun yoshlarimizda innovatsion fikrlashni hamda aynan innovatsion fikrlovchi rahbar va liderlarni shakllantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida o'zgaruvchan jamiyatga tez moslasha oladigan, yangiliklarni nafaqat ijobiy qabul qiladigan, balki unga intiladigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Lider – yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili ([I.I.Mahmudov [2], B.Ziyomammedov [5], S.T.Turg'unov va boshqalar [4]) oliy ta'lim muassasasi talabalarida liderlik sifatlarini namoyon bo'lishini maqsadga muvofiq tarzda rag'batlantirish va liderlik salohiyati rivojlanishi jarayonini batafsil modellashtirish zarurati to'g'risida guvohlik beradi. O'rganilayotgan jarayon muvaffaqiyatining muhim sharti oliy ta'lim muassasasining maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy muhiti hisoblanadi.


VOLUME-3, ISSUE-3

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun modelni pedagogik loyihalashda biz N.V.Kuzmina [1], V.P.Simonov [3] va boshqalar ishlarida ifodalangan pedagogik tizimlarning nazariy asoslariga tayandik.

Liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan ishlab chiqilgan dasturga bog'liq. Dasturni ishlab chiqishda quyidagi uslubiy talablarni hisobga olish kerak: ishning asosiy maqsadlarini aniq shakllantirish; asosiy vazifalarni aniqlash; ish shaklini aniqlash (individual, guruh); shaxsning yoshi, intellektual va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tegishli usullarni tanlash; rivojlanish jarayoni dinamikasini tahlil qilish va baholash usullarini ishlab chiqish; zarur jihozlarni va materiallarni tayyorlash.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirishning maqsadli, mazmunli va nazorat-diaagnostik komponentlardan tashkil topgan modeli takomillashtirildi (1-rasmga qarang).





1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning liderlik sifatlarini rivojlantirishning strukturaviy-mazmunli modeli

Ammo, ushbu model talabalarda individual yondashuv orqali liderlik sifatlarini rivojlantirish yuzasidan pedagogik shart-sharoit darajasi yuqori emasligi e'tibordan chetda qolgan. Tabiiyki, ma'lum bir metodlar orqali talabalarda liderlik sifatlarini birdek tarbiyalash mushkul, biroq bu modelga asosan oliy ta'lim muassasasida yaratilgan ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya komponentlarini qamrab olgan uzluksiz ta'sir vositalari orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonini maqsad va vazifalarini, tamoyillarini va funksiyalarini maqsadli komponent ifodalaydi.

Maqsadli komponent. Maqsad alohida komponentlar ichida tizimni shakllantiruvchi omildir va modeldagi barcha komponentlarning integratsiya jarayonini bajaradi va umuman olganda, diqqatni yakuniy natijaga qaratishdir.

OTMda talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan quyidagi vazifalar majmuini o'z ichiga oladi:

talabalarning oliy ta'lim muassasida kommunikativ kompetensiyalarni o'zlashtirishlari;

pedagogik faoliyat uchun ahamiyatli bo'lgan tashkiliy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish;

pedagogik nostandart vaziyatlarni hal etish uchun instrumental kompetensiyalar ko'nikmasini rivojlantirish.

Faollik liderlik holatining mohiyatini aks ettirib, faoliyatda maqsadga yo'naltiriladi. Faoliyat liderlik sifatlarining rivojlanishidagi auditoriya va auditoriyadan tashqari, o'quv va kasbiy faoliyat kabi sohalarini aniqlaydi.

Natijada, pedagogik faoliyat turli ko'rinishlarining qurilgan izchilligi qo'yilgan vazifalarni bosqichma-bosqich hal etish va maqsadga erishishga olib keladi.

“Shaxsdagi liderlik fazilatlari ko'pincha jamoaviy muhitda namoyon bo'ladi. Ko'pchilik orasida o'zini tutishi, o'zgaralar xulqi va faoliyatini nazorat qilishi, yetakchi, aniq fikrlarni bildirishi, jamoaviy muhitdan energiya olishi liderlikka xos xususiyatlarni ifodalaydi”.

Mazmunli komponent. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning asosiy uslubiy yondashuvlarini belgilaydi va

VOLUME-3, ISSUE-3

talabalarning turli vaziyatlarda kasbiy faoliyatlarni egallashlarini ta'minlovchi tamoyillar, metodlari va vositalar, amalga oshirish mazmunini o'zida jamlaydi.

Mazmun liderlik sifati rivojlanishi jarayonining mohiyatini aks ettiradi:

- 1) pedagogik kasbida liderlik sifatlarining mohiyati va vazifasini aniqlash;
- 2) talabalar liderlik sifatlarini rivojlantirishga oid asosiy yondashuvlarni o'rganish;
- 3) tarbiyaviy muhitda o'zaro munosabatlar jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni o'zlashtirish;
- 4) liderning pedagogik faoliyatda ahamiyatli bo'lgan tashkiliy kompetensiyalarini shakllantirish;
- 5) instrumental kompetensiyalarni shakllantirish asosida nostandart pedagogik vaziyatlarda talabaning liderlik uslubini yaratish bo'yicha mustaqil ijodiy faoliyatni tashkillashtirish.

Bizning fikrimizcha, ushbu jihatlar quyidagi fazilatlarining shakllanishini ta'minlaydi:

1. O'z-o'zini hurmat qilish – o'zini anglash va to'g'ri baholay olish, o'zining imkoniyat va chegaralarini, kuchli va zaif tomonlarini ko'rish hamda o'zini kuchli va zaif tomonlar bilan birga qabul qilish qobiliyatidir.
2. O'zgalarning hissiyatini fahmlay olish – bu o'zga shaxsning ma'lum bir vaziyatda boshidan kechirayotgan hissiyotlarini tan olish, uning his-tuyg'ularini ilg'ab olish va ularning paydo bo'lish sabablarini tushunish qobiliyati.
3. O'zini ifoda etish – bu his-tuyg'ularni va fikrlarni aniq va konstruktiv ifodalash, shuningdek, o'z hissiy energiyasini safarbar qilish hamda zarurat tug'ilganda ishonchni mustahkamlay olish qobiliyati.
4. Mustaqillik – bu o'ziga ishonch va boshqalarning his-tuyg'ulariga tobe bo'lmaslik qobiliyati.
5. Empatiya – o'zgalarning his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish va boshqalarning tuyg'ularini tushunish qobiliyati.
6. Ijtimoiy mas'uliyat – mas'uliyatlilik hamda boshqalar bilan konstruktiv ishlay olish qobiliyati.

7. Shaxslararo munosabatlar – verbal va noverbal muloqot, hissiy yaqinlikka tayanuvchi o‘zaro manfaatli munosabatlarni o‘rnata olish va qo‘llab-quvvatlash orqali konstruktiv muloqot qilish qobiliyati, ijtimoiy aloqalarda o‘zini xotirjam his etish qobiliyati.

8. Stressga chidamlilik – o‘z his-tuyg‘ularini tezkorlik bilan samarali boshqara olish qobiliyati.

9. Impulslarni boshqarish – his-tuyg‘ularni ushlab turish, vasvasadan qochish.

10. Haqiqatni real baholash – insonning fikr va his-tuyg‘ularini obyektiv tashqi reallik bilan solishtirish qobiliyati.

11. Moslashuvchanlik – o‘zgaruvchan sharoitlar bilan bog‘liq ravishda o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlarini, xulq-atvori va xatti-harakatlarini tezlik bilan o‘zgartirish qobiliyati.

12. O‘z menini tushunish – rejalar tuzish va ularga erishish tomonlarini belgilash, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyati.

13. Optimizm – qiyin sharoitlarda ham umidini saqlab turish va ijobiy munosabatda bo‘lish qobiliyati.

14. Baxtlilik – o‘zidan, boshqalardan va umuman, hayotidan qoniqish hissi.

Nazorat-diagnostika komponenti. Talabalarda liderlik sifatlarini shakllantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari, darajalari va ularni baholash usullari tavsiflanadi.

Talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirish, talab qilingan sifatni ta’minlaydigan darajasini baholash jarayonning har bir bosqichida sodir bo‘ladi va ishlab chiqilgan testlar, so‘rovnomalari, amaliy vazifalar majmuasi yordamida amalga oshiriladi. Talabalarining liderlik sifatlarini rivojlantirish natijasi nazorat-diagnostik komponent yordamida baholanadi. Unda rivojlangan liderlik sifati asosi sifatida kompetensiyalar majmuining shakllanganligi mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari ifodalangan. Vazifaning murakkabligiga binoan o‘rganilayotgan jarayon muvaffaqiyatlilik mezoni integrativ hisoblanadi.

Nazorat-diagnostika komponenti talabalarda liderlik sifatlarini aniqlash usullarini o‘z ichiga oladi:

- Liderlik sifatleri diagnostikasi ((E.Jarikov, E.Krushelnitskiy);
- kommunikativ va tashkiliy moyilliklarning diagnostikasi (V.A.Fedorishin);
- “Men liderman” testi (A.N. Lutoshkin).

Shunga ko‘ra, uning ko‘rsatkichlari shakllantirilishi zarur bo‘lgan ajratilgan kompetensiyalarga mos mavzuga oid guruhlariga bo‘lish mumkin. Shu munosabat bilan kommunikativ, tashkiliy va vositaviy kompetensiyalar guruhi ko‘rinishida ifodalangan rivojlangan liderlik sifati mutaxassisga kasbi qo‘ygan talablarga qanchalik mosligini aks ettiradi.

Kommunikativ kompetensiyalar shakllanganligining ko‘rsatkichlari muloqotga kirishuvchanlik, boshqalarni motivatsiyalash va notiqlik qobiliyatlari hisoblanadi.

Tashkiliy kompetensiyalar shakllanganligi ko‘rsatkichlari - jamoaviy ishda o‘ziga javobgarlikni ola bilish, jamoani tashkil etish va o‘z-o‘zini tashkil etish malakalari hisoblanadi.

Instrumental kompetensiyalarni shakllanish darajalari - improvizatsiyasi va ijodkorlikni kursatishga moyillik qilish jixatlari va kasbiy faoliyatni turlariga yondashishda qaratilgan, har qanday vaziyatda pedagogik kompetensiyani amalda qo‘llash qobiliyatini tasdiqlovchi jamoaviy faoliyatni motivatsiyon xolati yo‘naltirilgan.

So‘z so‘ngida aytish mumkinki, “liderlik sifatini rivojlantirib borish orqali yoshlarda boshqaruvchilik va rahbarlikni rivojlantirish bilan bir qatorda, mamlakatimiz taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadigan yaxshi kadr, jumladan, jamiyatga foydasi tegadigan inson bo‘lishlariga zamin yaratish mumkin”.

Demak, bugungi ijtimoiy jamiyatimizda kuchli innovatsiyalar yuz berayotgan bir sharoitda chinakam liderlik sifatlariga ega bo‘lgan yosh avlodni shakllantirishda oliy ta’lim muassasasida talaba-yoshlarni strategik boshqaruvga tayyorlash masalalarining o‘rganilishi eng dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Talabalarning oliy ta’lim muassasasi ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi ularning kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qimmatli va noyob tajribadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кузьмина Н.В., Реан А.А. Профессионализм педагогической деятельности. – СПб.: НИИРПМ, 1993. – 89 с.
2. Махмудов И.И. Boshqaruv professionalizmi: Psixologik tahlil. – T.: Akademiya, 2011. – 304 b.
3. Симонов В.П. Педагогический менеджмент: ноу-хау в образовании: Учебное пособие. – Москва: Высшее образование, 2006. – 357 с.

VOLUME-3, ISSUE-3

4. Turg'unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. – Toshkent: O‘z.PFITI, 2014. – 100 b.

5. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: “Tib-Kitob”, 2009. –183 b.



PAST BOSIMLI OQAVA SUVLARDA ISHLOVCHI MIKRO GESLARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xamrayev Og‘abek Oybek o‘g‘li

ogabekxamrayev678@gamil.com

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Elektrotexnika va energetika” kafedrasi Elektr energetikasi tizimlari va tarmoqlari ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada past bosimli oqava suvlarda ishlovchi mikrogeslarni optimal konstruksiyasidan foydalanish imkoniyatlari va tatbiq etilishi natijasida ekologik va iqtisodiy samaradorligi oshishi bo‘yicha analizlar va fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: MikroGES, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, elektr energiyasi, charxpalak, generator.

Hozirgi davrga kelib atrof muhitni, ekologiyani toza asrash va ularning ifloslanishining oldini olish shuning bilan birga tabiiy yoqilg‘i resurslarini tejash muhimligi ko‘plab marta ta’kidlanmoqda. Biroq mazkur muammoning XX asr oxiri va XXI asr boshida “Global ekologik muammo”ga aylanganligi endilikda sir emas. Energiya tanqisligi muammosining yuzaga kelishiga e’tibor qarataylik. Bir tomondan yer yuzidagi aholi miqdorining ortib borishi va uning kundalik hayot qulayliklariga intilishi bilan bog‘liq energiya xarajatining ortib borishi tabiiy bo‘lsa, ikkinchi tomondan ehtiyojga yarasha energiya olish uchun an’anaviy texnologiyalardan foydalanish mazkur texnologiyalar tufayli paydo bo‘ladigan ikkilamchi chiqindilar hisobiga atmosferaning ifloslanishi, shuningdek “Issiqxona effekti”ning salbiy oqibatlarini bilan bog‘liq global ekologik muammoni yuzaga keltirishi barchaga ayon.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘lmish quyosh, shamol energiyalaridan elektroenergiya ishlab chiqarish sohasi qam gidroenergetik potentsial mavjud bo‘lmagan hududlarda asosiy manba bo‘la oladi. Respublikamizdagi bunday hududlardagi energetik potentsiallardan biri shamol energiyasidan yiliga 1,07 trln.kW*soat elektroenergiya ishlab chiqarish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu turdagi energiyadan foydalanish 2006-2010 yillar oralig‘ida Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanida 12% ortishi kuzatilgan. Chet mamlakatlardagi elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojga e’tibor qaratsak, hozirgi vaqtda Pokistonda ham energiya krizisi mavjud. Bu mamlakat shahar aholisida har kuni 10-12 soat, qishloq aholisida 14-20 soatlab elektr energiyasi bo‘lmaydi. U yerda 60000 MW quvvatdagi gidroenergetik potentsial mavjud. Agar ulardan mikro-GES tizimlarini qo‘llasa bu


VOLUME-3, ISSUE-3

energiya tanqisligini hal etish mumkin. Huddi shunday holat rivojlanayotgan mamalakatlar Janubiy Amerika, Osiyo, Afrika davlatlarida ham mavjud. U yerlarda 1100 millionlab odamlar elektr energiyasiz sharoitda yashamoqda, ularda mavjud gidroenergetik potentsiallardan foydalanib, mikro GES tizimini yaratish orqali katta miqdordagi elektroenergiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirish mumkin.

Past bosimli oqava suvlar Republikamizda ko'p joylarda mavjud, ayniqsa viloyatimiz Xorazmda bunday oqava suvlar dan elektr energiyasini olish imkoniyatlari ko'plab mavjud. Elektr energiyasini oqava suvlardan olish imkoniyatlarini olib borilayotgan ilmiy izlanishlar davomida qilingan hisob kitoblarga ko'ra mikro GES qurilmasini o'rnatib ishga tushirish natijasida tan narxi arzon, ishonchli va uzluksiz elektr energiya manbalarini ishga tushirish imkoniyatlari mavjud.

Bunga misol tariqasida o'tkazayotgan tajribamizga asosan Xorazm viloyati Xonqa tuman Navxos qishlog'i hududi yaqinidan oqib o'tuvchi ariq suvi tezligi 1m/s tezlikda ko'ndalang kesim yuzasi 2,5 m², ya'ni sekundiga 2,5 m³ suv oqib o'tishi aniqlanib undan 2 kW elektr energiyasini olish imkoniyati aniqlandi.

1-rasm. Tajriba Navxos qishlog'i hududi yaqinidan oqib o'tuvchi ariqda o'tkazildi.



O'tkazilgan tajribalarimizdan xulosa qilib shunday kichik oqava suvlarda elektr energiyasini olish imkoniyatlarini o'rganib quyidagi natijalar imkoniyati o'rganildi:

0.5 m/s - 0.03 kW

0.7 m/s - 0.07 kW

1 m/s - 0.14 kW

1.5 m/s - 0.31 kW

2 m/s - 0.55 kW

2.5 m/s - 0.86 kW

3 m/s - 1.24 kW

Mahalliy imkoniyatlardan kelib chiqib mikroGESning generator qismida ayrim o'zgartirishlar amalga oshirildi hamda o'zimizda mavjud bo'lgan chetdan keltirilgandan ko'ra arzonroq va samaradorligi yuqoriroq dvigatellarni qayta moslashtirilgan holatda chulg'amlarini o'rab stator qismini past aylanishga ega bo'lgan energiya beruvchi qurilmani, rotor qismini neodim magnitlar orqali o'zgartirish hisobiga yuqori samarali elektr energiya ishlab chiqaruvchi generator ishlab chiqildi.

Hisoblarga ko'ra bizning generatorimiz aynan bir xil quvvatdagi Xitoy generatorlari bilan taqqoslaganda 2,5 barobar arzon tushmoqda. Mahalliy sharoitda dvigatellarni qayta ishlab generator sifatida mikroGES larda qo'llash kata samara bermoqda. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Elektrotexnika va energetika" kafedrasida qoshida tashkil etilgan "Havaskor elektriklar" guruhida malakali o'qituvchi va iqtidorli talabalar bilan ushbu qurilmani yanada samaradorligini oshirish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ishlab chiqilgan qurilma orqali hozirgi kundagi dolzarb muammo bo'lib turgan dunyodagi tabiiy energiya resuslarining tugab borayotganligi hamda ananaviy usulda ishlab chiqarilayotgan elektr energiya stansiyalarining atrof muhitga ya'ni ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirish imkoniyatini beradi. Ushbu muammolarni bartaraf qilishda bizning ishlab chiqqan va amalda sinalgan qurilmamiz ma'lum darajada ijobiy ta'sirini ko'rsatib yil mavsumiga ham bog'liq bo'lmagan holda uzluksiz ishonchli ekologik toza energiya manbasi bilan ta'minlaydi. Xorazm sharoitida ayniqsa ushbu qurilma yuqori samara beradi, chunki viloyatimizda bunday qurilmada elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ko'plab past bosimli oqava suv ariqlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev, S., G'aniyev, D., & Abdurayimov, A. (2023). MIKRO VA KICHIK GIDROELEKTROSTANTSIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNING AFZALLIKLARI.
2. Asanov, G. R., Nabixonov, M., & Safarov, I. (1994). O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. *T.:«O'qituvchi.* https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=YBVwwWAAAAAJ&citation_for_view=YBVwwWAAAAAJ:9yKSN-GCB0IC.
3. Zokmirjon o'g'li, M. B., & Alisher o'g'li, A. O. (2023). BIOTECH

VOLUME-3, ISSUE-3

DRIVES THE WATER PURIFICATION INDUSTRY TOWARDS A CIRCULAR ECONOMY. *Open Access Repository*, 4(03), 125-129.
<https://www.oarepo.org/index.php/oa/article/view/2513>.

4. Axmedov D., Azimov A. DEMFERLARNING QUYOSH ENERGASI TIZIMLARINING INVERTERLARIDA QO‘LLANISHI // *Ekonomi i sotsium*. 2022. №6-2 (97). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/application-of-dempers-in-invertersof-solar-power-systems>.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОЛИКУЛЬТУРНОМ
ОБРАЗОВАНИИ

USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN MULTICULTURAL EDUCATION

KO'P MADANIYATLI TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH

Киреева Эльвина Фларитовна

преподаватель кафедры «РКИ», филиал РГПУ им. А.И.Герцена
в г. Ташкенте

Портнова Мария

студентка 1 курса «Социальная психология», филиал РГПУ
им. А.И.Герцена в г. Ташкенте

Фатхуллаева Мадина

студентка 1 курса «Филология», филиал РГПУ
им. А.И.Герцена в г. Ташкенте

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы внедрения современных технологий в образовательный процесс в условиях поликультурной среды. Анализируются основные тенденции цифровизации образования, применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), искусственного интеллекта (ИИ), виртуальной и дополненной реальности (VR/AR), онлайн-платформ и других инновационных инструментов. Особое внимание уделяется их влиянию на повышение качества обучения, развитие межкультурной коммуникации и адаптацию образовательных программ к потребностям студентов из разных культурных сред.

Ключевые слова: современные технологии, поликультурное образование, цифровизация, ИКТ, онлайн-обучение, межкультурная коммуникация.

Annotation

This article discusses the issues of introducing modern technologies into the educational process in a multicultural environment. The main trends in the digitalization of education, the use of information and communication technologies (ICT), artificial intelligence (AI), virtual and augmented reality (VR/AR), online platforms and other innovative tools are analyzed. Particular attention is paid to their influence on improving the quality of education, developing intercultural communication and adapting educational programs to the needs of students from different cultural environments.

Key words: modern technologies, multicultural education, digitalization, ICT, online learning, intercultural communication.

Izoh

Ushbu maqolada ko'p madaniyatli muhitda ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilinadi. Ta'limni raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt (AI), virtual va to'ldirilgan reallik (VR/AR), onlayn platformalar va boshqa innovatsion vositalardan foydalanishning asosiy tendentsiyalari tahlil qilingan. Ularning ta'lim sifatini oshirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va ta'lim dasturlarini turli madaniy muhitdagi talabalar ehtiyojlariga moslashtirishga ta'siriga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, ko'p madaniyatli ta'lim, raqamlashtirish, AKT, onlayn ta'lim, madaniyatlararo muloqot.

Введение

Современное образование переживает значительные трансформации, связанные с цифровизацией, глобализацией и развитием межкультурного взаимодействия. В условиях поликультурной среды образовательный процесс сталкивается с рядом вызовов, включая языковые барьеры, различия в стилях обучения и культурные особенности студентов. Использование современных технологий позволяет решать эти проблемы, обеспечивая персонализированное обучение, доступ к разнообразным образовательным ресурсам и развитие межкультурных компетенций.

Основная цель статьи — исследование роли современных технологий в поликультурном образовании, выявление их преимуществ и возможных ограничений, а также определение наиболее эффективных цифровых инструментов для обучения.

Актуальность темы исследования

Поликультурное образование предполагает обучение студентов, представляющих разные этнические, языковые и культурные группы. В условиях глобализации число таких учащихся растет, что требует новых подходов к организации учебного процесса.

Использование современных технологий в поликультурном образовании позволяет:

Упрощать адаптацию иностранных студентов к образовательной среде;

Повышать доступность образовательных ресурсов независимо от географического положения;

Обеспечивать индивидуальный подход к обучению с учетом языковых и культурных особенностей студентов;

Формировать навыки межкультурной коммуникации и цифровой грамотности.

Благодаря этим преимуществам цифровизация образования становится неотъемлемой частью современных образовательных систем.

Цель исследования

Выявление эффективности современных технологий в организации поликультурного образования и анализ их влияния на качество учебного процесса.

Задачи исследования

1. Изучить ключевые проблемы поликультурного образования.
2. Проанализировать современные технологии, применяемые в образовательном процессе.
3. Рассмотреть влияние цифровых инструментов на успеваемость и мотивацию студентов.
4. Определить перспективные направления развития технологий в поликультурном обучении.

Результаты исследования

1. Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) в образовании. ИКТ играют важную роль в организации обучения студентов из разных культурных сред. Ключевые инструменты включают:

Видеоконференции и вебинары (Zoom, Microsoft Teams, Google Meet) – позволяют организовать онлайн-занятия и межкультурные дискуссии.

Цифровые образовательные платформы (Coursera, Udemy, Moodle) – обеспечивают доступ к курсам на разных языках и с учетом различных образовательных потребностей.

Электронные учебники и мультимедийные ресурсы – делают обучение более интерактивным и доступным.

2. Искусственный интеллект (ИИ) и адаптивное обучение. ИИ становится важным инструментом в образовании, предоставляя персонализированные рекомендации и помогая адаптировать учебные материалы к уровню подготовки студента.

Чат-боты и виртуальные ассистенты (например, ChatGPT) – помогают студентам получать ответы на вопросы в режиме реального времени.

Адаптивные образовательные системы (Khan Academy, Smart Sparrow) – анализируют прогресс студентов и подстраивают материалы под их уровень.

Виртуальная и дополненная реальность (VR/AR)

Технологии VR/AR создают интерактивную образовательную среду, позволяя студентам погружаться в изучаемый материал. Например:

VR-тур по историческим и культурным местам – позволяет учащимся знакомиться с культурами разных стран.

Виртуальные лаборатории – помогают студентам-практикам, например, в медицинском или инженерном образовании.

4. Онлайн-обучение и цифровая трансформация

Онлайн-курсы и дистанционные образовательные программы позволяют студентам из разных стран получать качественное образование независимо от местоположения. Преимущества онлайн-обучения включают:

Доступность учебных материалов в любое время;

Гибкость в выборе темпа обучения;

Возможность взаимодействия с международными преподавателями и студентами.

5. Развитие межкультурной коммуникации через технологии

Использование цифровых технологий способствует развитию межкультурной коммуникации. Среди эффективных методов можно выделить:

Совместные международные проекты – студенты из разных стран работают над едиными заданиями, развивая командные навыки и понимание культурных различий.

Онлайн-дискуссионные клубы – помогают студентам улучшить языковые навыки и адаптироваться к новой культуре.

Переводчики и автоматизированные системы обработки текста (Google Translate, DeepL) – облегчают взаимодействие студентов с разными языковыми компетенциями.

Выводы

Использование современных технологий в поликультурном образовании способствует повышению качества обучения, индивидуализации учебного процесса и развитию межкультурных компетенций. Основные преимущества цифровых технологий включают:

Возможность адаптации образовательных программ под культурные и языковые особенности студентов;

Улучшение коммуникации между преподавателями и учащимися из разных стран;

Повышение мотивации студентов благодаря интерактивным методам обучения.

Однако цифровизация образования также требует решения ряда проблем, включая обеспечение технической доступности, повышение цифровой грамотности преподавателей и студентов, а также защиту персональных данных.

В будущем развитие технологий ИИ, VR/AR и онлайн-платформ продолжит трансформировать поликультурное образование, делая его более доступным и эффективным для студентов со всего мира.

Список использованной литературы:

1. Алексеева Т.М. "Информационные технологии в образовании". – Москва: Просвещение, 2022.
2. Блинов В.И. "Цифровизация образовательного процесса: теория и практика". – Санкт-Петербург: Питер, 2023.

VOLUME-3, ISSUE-3

3. Зорин А.В. "Искусственный интеллект в образовательной сфере". – Казань: Университетская книга, 2021.
4. Кравцова Л.Н. "Виртуальная реальность в обучении: перспективы и вызовы". – Новосибирск: Наука, 2020.
5. Фёдорова О.Н. "Межкультурная коммуникация в цифровом пространстве". – Екатеринбург: Академия, 2023.



FISKAL SIYOSAT: BYUDJET TAQCHILLIGI VA DAVLAT QARZI
MUAMMOLARI

Jo'rayeva Lola Abdugabbarovna

Iqtisodiyot fakulteti o'qituvchisi

Rashidova Sevinch O'rol Qizi

Murtozayeva Mavjuda Muhiddin qizi

Esonova Ozoda Iskandar qizi

Nurov Nodirbek Nazirqul o'g'li

Xamdamov Sanjar Xusniddinovich

Talabalar

Annotatsiya: Mazkur maqolada fiskal siyosatining jihatlari, xususan, byudjet taqchilligi va davlat qarzi bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Byudjet taqchilligining sabablari, uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va uni kamaytirish strategiyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat qarzining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, qarzni boshqarishning samarali usullari hamda ortiqcha qarzlarning salbiy oqibatlari muhokama qilinadi. Maqolada xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston misolida fiskal siyosatni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Natija: Fiskal siyosat davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, byudjet taqchilligi va davlat qarzi muammolari ushbu siyosatning asosiy masalalaridan biridir. Byudjet taqchilligi davlat daromadlarining xarajatlardan kam bo'lishi natijasida yuzaga kelib, uni qoplash uchun qarz olish zarurati tug'iladi. Davlat qarzi esa uzoq muddatda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi, inflatsiyani kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shuning uchun samarali fiskal siyosat orqali byudjet balansini ta'minlash va davlat qarzini oqilona boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Fiskal siyosat, byudjet taqchilligi, davlat qarzi, davlat xarajatlari, soliqlar, iqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya, makroiqtisodiy siyosat, byudjet daromadlari, moliyaviy boshqaruv.

Fiscal policy: budget deficit and state debt problems

Annotation: In this article, in this article, aspects of fiscal policy, in particular, analyzed the budget deficit and public debt. The reasons for the budget, its impact on economic stability and reduction strategies will be considered. The role of public debt in the economic development, effective lending methods, and the negative consequences of excess debt were discussed. The article will receive recommendations on the optimization of fiscal policy on the example of Uzbekistan.

Result: Fiscal Policy is a means of influence of economic processes, budget deficit and public debt issues are one of the main issues of this policy. The budget deficit occurs as a result of lower costs from expenses, and it is necessary to borrow to cover it. The public debt may adversely affect economic growth in the long run, strengthen inflation and risk financial stability. The effective fiscal policy plays an important role in providing budget balance through a fiscal policy and prudent management of public debt.

Keywords: Fiscal policy, budget deficit, public debt, public expenses, taxeconomic stability, inflation, macroeconomic policy, budget revenues, financial management.

**Фискальная политика: дефицит бюджета и проблемы с долгами
государства**

Аннотация: В этой статье, в этой статье, аспекты фискальной политики, в частности, проанализировали дефицит бюджета и государственный долг. Причины бюджета, его влияние на экономическую стабильность и стратегии сокращения будет рассмотрено. Была обсуждена роль государственного долга в экономическом развитии, эффективных методах кредитования и негативных последствиях избыточного долга. В статье будут получены рекомендации по оптимизации фискальной политики на примере Узбекистана.

Результат. Фискальная политика является средством влияния экономических процессов, дефицита бюджета и вопросов государственного долга является одним из основных вопросов этой политики. Дефицит бюджета происходит в результате более низких затрат от расходов, и необходимо заимствовать его. Государственный долг может отрицательно повлиять на экономический рост в долгосрочной перспективе, усилить инфляцию и риск финансовой стабильности. Эффективная фискальная политика играет важную роль в обеспечении бюджетного баланса посредством финансовой политики и разумного управления государственным долгом.

Ключевые слова: фискальная политика, дефицит бюджета, государственный долг, государственные расходы, такторическая стабильность, инфляция, макроэкономическая политика, доходы от бюджета, финансовое управление.

Kirish: Har bir davlat iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlash uchun fiskal siyosatni samarali boshqarishi lozim. Fiskal siyosat davlatning soliqlar va xarajatlar orqali iqtisodiyotni tartibga solish vositasidir. Uning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish va byudjet balansini saqlashdan iborat. Biroq, byudjet taqchilligi va davlat qarzi kabi muammolar ushbu siyosatning asosiy qiyinchiliklaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada byudjet taqchilligi va davlat qarzi muammolarining sabablari, oqibatlarini hamda ularni hal qilish yo'llari haqida so'z yuritimiz.

Byudjet taqchilligi va uning oqibatlarini. Byudjet taqchilligi davlatning jami xarajatlari uning daromadlaridan oshib ketgan holatda yuzaga keladi. Bu muammo turli sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin, jumladan, soliq tushumlarining kamayishi, ortiqcha davlat xarajatlari yoki iqtisodiy inqirozlar. Byudjet taqchilligining asosiy oqibatlarini quyidagilardan iborat:

Davlat qarzining ortishi – Byudjet taqchilligi mavjud bo'lsa, hukumat uni qoplash uchun ichki yoki tashqi manbalardan qarz olishi kerak bo'ladi. Bu esa davlat qarzining ortishiga sabab bo'ladi. Inflyatsiya xavfi – Agar hukumat taqchillikni qoplash uchun ortiqcha pul emissiyasini amalga oshirsa, bu inflyatsiyani kuchaytirishi mumkin. Investitsiyalarga salbiy ta'sir – Davlat obligatsiyalarini chiqarish orqali mablag' jalb qilinsa, xususiy sektor kredit olish imkoniyatlari cheklanadi, bu esa iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi mumkin. Kredit reytingining pasayishi – Uzoq muddatli byudjet taqchilligi mamlakatning xalqaro kredit reytingining tushishiga sabab bo'lishi va yangi qarzlarni jalb qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

Davlat qarzi va uning muammolari

Davlat qarzi davlat tomonidan ichki yoki xalqaro bozorlardan qarz olish yo'li bilan jalb qilinadigan moliyaviy resurslardir. Agar davlat qarzi haddan tashqari ortib ketsa, u quyidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

1. Foiz to'lovlarining oshishi – Davlat qarzi qancha ko'p bo'lsa, uni xizmat qilish uchun shuncha ko'p foiz to'lanadi, bu esa davlat byudjetiga qo'shimcha yuk bo'ladi.

VOLUME-3, ISSUE-3

2. Moliyaviy barqarorlikka tahdid – Agar davlat qarzi haddan tashqari yuqori bo‘lsa, investorlar ishonchsizlik bildirishi mumkin, bu esa valyuta kursining beqarorligiga olib keladi.

3. Soliqlarning oshirilishi ehtimoli – Davlat qarzini kamaytirish maqsadida hukumat soliqlarni oshirishga majbur bo‘lishi mumkin, bu esa biznes va fuqarolar uchun qo‘shimcha moliyaviy yuk yaratadi.

4. Kelajak avlodlarga yuk – Hozirgi davlat qarzi kelajak avlodlar tomonidan to‘lanishi kerak bo‘ladi, bu esa ularning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Byudjet taqchilligi va davlat qarzi muammolarini hal qilish yo‘llari

Byudjet taqchilligi va davlat qarzi muammolarini hal qilish uchun quyidagi strategiyalarni qo‘llash mumkin:

1. Soliq tushumlarini oshirish – Hukumat soliqlarni samarali yig‘ish orqali tushumlarni ko‘paytirishi va soliq tizimini takomillashtirishi lozim.

2. Davlat xarajatlarini optimallashtirish – Keraksiz va samaradorligi past xarajatlarni qisqartirish orqali byudjet taqchilligi kamaytirilishi mumkin.

3. Iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish – Davlat infratuzilmasiga investitsiya qilish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni oshirish muhim.

4. Davlat qarzini barqaror boshqarish – Qarzni qayta moliyalashtirish, foiz stavkalarini va muddatlarni hisobga olgan holda samarali strategiya ishlab chiqish kerak.

Fiskal siyosat: Byudjet taqchilligi va davlat qarzi muammolari

Kirish: Har bir davlat iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta’minlash uchun fiskal siyosatni samarali boshqarishi lozim. Fiskal siyosat davlatning soliqlar va xarajatlarni tartibga solish vositasidir. Uning asosiy maqsadi iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish va byudjet balansini saqlashdan iborat. Biroq, byudjet taqchilligi va davlat qarzi kabi muammolar ushbu siyosatning asosiy qiyinchiliklaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada byudjet taqchilligi va davlat qarzi muammolarining sabablari, oqibatlari hamda ularni hal qilish yo‘llari haqida so‘z yuritamiz.

Byudjet taqchilligi va uning oqibatlari

VOLUME-3, ISSUE-3

Byudjet taqchilligi davlatning jami xarajatlari uning daromadlaridan oshib ketgan holatda yuzaga keladi. Bu muammo turli sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin, jumladan, soliq tushumlarining kamayishi, ortiqcha davlat xarajatlari yoki iqtisodiy inqirozlar. Byudjet taqchilligining asosiy oqibatlari quyidagilardan iborat:

Davlat qarzining ortishi – Byudjet taqchilligi mavjud bo'lsa, hukumat uni qoplash uchun ichki yoki tashqi manbalardan qarz olishi kerak bo'ladi. Bu esa davlat qarzining ortishiga sabab bo'ladi. Inflyatsiya xavfi – Agar hukumat taqchillikni qoplash uchun ortiqcha pul emissiyasini amalga oshirsa, bu inflyatsiyani kuchaytirishi mumkin. Investitsiyalarga salbiy ta'sir – Davlat obligatsiyalarini chiqarish orqali mablag' jalb qilinsa, xususiy sektor kredit olish imkoniyatlari cheklanadi, bu esa iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi mumkin. Kredit reytingining pasayishi – Uzoq muddatli byudjet taqchilligi mamlakatning xalqaro kredit reytingining tushishiga sabab bo'lishi va yangi qarzlarni jalb qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

Davlat qarzi va uning muammolari. Davlat qarzi davlat tomonidan ichki yoki xalqaro bozorlardan qarz olish yo'li bilan jalb qilinadigan moliyaviy resurslardir. Agar davlat qarzi haddan tashqari ortib ketsa, u quyidagi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin:

Foiz to'lovlarining oshishi – Davlat qarzi qancha ko'p bo'lsa, uni xizmat qilish uchun shuncha ko'p foiz to'lanadi, bu esa davlat byudjetiga qo'shimcha yuk bo'ladi. Moliyaviy barqarorlikka tahdid – Agar davlat qarzi haddan tashqari yuqori bo'lsa, investorlar ishonchsizlik bildirishi mumkin, bu esa valyuta kursining beqarorligiga olib keladi. Soliqlarning oshirilishi ehtimoli – Davlat qarzini kamaytirish maqsadida hukumat soliqlarni oshirishga majbur bo'lishi mumkin, bu esa biznes va fuqarolar uchun qo'shimcha moliyaviy yuk yaratadi. Kelajak avlodlarga yuk – Hozirgi davlat qarzi kelajak avlodlar tomonidan to'lanishi kerak bo'ladi, bu esa ularning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

3.1. Роль школы и учителей. Школа играет важную роль в формировании культуры ЗОЖ, так как дети проводят в ней значительную часть времени. Основные методы, которые могут быть использованы в образовательном процессе: Включение тем о здоровом образе жизни в учебную программу. На уроках окружающего мира, физкультуры и биологии следует уделять внимание вопросам здоровья, гигиены, питания и режима дня. Проведение интерактивных занятий. Викторины, ролевые игры, тематические конкурсы помогут детям

лучше усвоить информацию о ЗОЖ. Организация спортивных мероприятий. Подвижные игры, эстафеты, соревнования и туристические походы способствуют развитию у детей интереса к физической активности. Психологическая поддержка. Школьные психологи могут проводить беседы, направленные на формирование у детей устойчивых здоровых привычек и навыков управления стрессом.

3.2. Влияние семьи. Семья — это первая среда, в которой формируются привычки ребёнка. Родители должны создавать условия для здорового образа жизни, включая: Соблюдение режима дня (достаточное количество сна, правильное распределение времени на учёбу и отдых). Формирование культуры питания (употребление полезной пищи, отказ от вредных продуктов). Привитие личной гигиены (мытьё рук, уход за зубами, чистота в одежде и помещении). Ограничение экранного времени (телефон, планшет, компьютер) и стимулирование активного отдыха. Совместные прогулки, спортивные игры и участие в оздоровительных мероприятиях.

3.3. Социальная среда и внешние факторы. Формирование культуры ЗОЖ у младших школьников также зависит от окружающей социальной среды. Важно создать благоприятные условия на уровне общества, включая: Развитие безопасных и доступных мест для активного отдыха детей (детские площадки, спортивные комплексы, парки). Популяризация ЗОЖ через социальные проекты, мультфильмы, книги и другие образовательные ресурсы. Организация мероприятий, направленных на укрепление здоровья детей (оздоровительные лагеря, кружки по интересам, спортивные секции).

4. Препятствия в формировании культуры ЗОЖ и пути их преодоления. Несмотря на важность формирования ЗОЖ, существуют некоторые барьеры, мешающие этому процессу: Пассивный образ жизни. Современные дети проводят много времени за гаджетами, что снижает их двигательную активность. Решение: ограничение экранного времени и стимулирование активных игр. Нездоровые пищевые привычки. Фастфуд и сладости стали частью детского рациона. Решение: привитие культуры правильного питания и контроль за рационом. Недостаток знаний у родителей и педагогов. Многие взрослые не обладают достаточной информацией о формировании ЗОЖ у детей. Решение: проведение обучающих программ, семинаров и консультаций. Отсутствие мотивации у детей. Некоторым детям сложно воспринимать здоровый образ

жизни как нечто интересное. Решение: использование игровых и интерактивных методик обучения.

Заключение:

Формирование культуры здорового образа жизни у младших школьников — это многогранный процесс, который требует комплексного подхода с учётом возрастных и психологических особенностей детей. На этом этапе жизни формируются основные привычки и установки, которые будут определять здоровье и поведение ребёнка в будущем. Главную роль в этом процессе играют школа, семья и окружающая социальная среда. Учебные заведения должны активно внедрять темы здорового образа жизни в образовательный процесс, используя интерактивные методы обучения и физическую активность. Родители, в свою очередь, должны подавать личный пример, прививая детям основы правильного питания, режима дня и личной гигиены. Внешняя среда также должна способствовать формированию культуры ЗОЖ, обеспечивая безопасные и благоприятные условия для активного отдыха детей. Несмотря на существующие препятствия, такие как пассивный образ жизни, вредные пищевые привычки и недостаток знаний у родителей и педагогов, их можно преодолеть с помощью образовательных программ, мотивационных методик и активного участия общества. Таким образом, только при совместных усилиях школы, семьи и общества возможно успешное формирование у младших школьников культуры здорового образа жизни, что в дальнейшем обеспечит им гармоничное физическое, психическое и социальное развитие.

Использованная литература:

1. Васильева, М. Д. «Основы здорового образа жизни младших школьников» — Москва: Просвещение, 2020.
2. Смирнов, А. П. «Психологические особенности формирования ЗОЖ у детей» — Санкт-Петербург: Питер, 2019.
3. Сидорова, Е. Н. «Возрастные особенности младших школьников и их влияние на воспитание» — Новосибирск: Наука, 2021.
4. Федеральный государственный образовательный стандарт начального общего образования (ФГОС НОО) — Министерство просвещения РФ, 2022.

5. Иванов, В. Л. «Педагогические технологии формирования культуры здоровья» – Казань: Академия образования, 2018.
6. Журнал «Педагогика и здоровье» – Выпуск №4, 2023.
7. Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ). «Основы здорового образа жизни: рекомендации для детей и подростков» – Женева, 2022.
8. Официальный сайт Министерства здравоохранения Российской Федерации: www.rosminzdrav.ru.
9. Королёва, Н. А. «Физическая активность и её влияние на здоровье детей» – Екатеринбург: Университетская книга, 2020.
10. Борисова, Т. И. «Роль семьи в формировании культуры здорового образа жизни у детей» – Омск: Издательство ОмГУ, 2017.

**RAQAMLI TEXNOLOGIYA VOSITASIDA TALABALARNING TEXNIK
IJODKORLIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Muradov Salaxiddin Djumanazarovich

Fan va texnologiyalar universiteti “Aniq fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Jumanazarov Sardor

Iqtisod yunalishi talabasi

saloxiddinmuradov2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi vaqtda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga joriy etish istiqbollari, raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish, zamonaviy raqamli texnologiya vositalaridan foydalanishning asosiy pedagogik maqsadlari, talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiya vositalarining o‘rni va uning metodologik asoslarini o‘rganish va samarali yo‘llarini o‘rganish keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективы внедрения цифровых образовательных технологий в образовательный процесс, что в настоящее время является одним из наиболее актуальных вопросов, развитие технической творческой компетентности учащихся посредством цифровых технологий, основные педагогические цели использования современных средств цифровых технологий, роль средств цифровых технологий в развитии технической творческой компетентности учащихся, а также исследование их методических основ и эффективных способов.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyasi, raqamli axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyasi, texnologik innovatsiya.

Ключевые слова: образовательные технологии, цифровые информационные технологии, компьютерные технологии, технологические инновации.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari va raqamli vositalarning roli tobora ortib bormoqda. Ta’lim sohasi ham ushbu texnologik o‘zgarishlar ta’sirida yangilanishlar kiritib, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga intilmoqda. Xususan, raqamli ta’lim texnologiyalari talabalar uchun o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish, ularga turli manbalardan axborotni tezda topish, qayta

ishlash va baholash imkonini bermoqda. Bugungi kunda axborotni izlash va uni samarali foydalanish talabalarning asosiy kompetentsiyalaridan biriga aylanib borayotgan bir vaqitda raqamli texnologiya vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati darajasida ko'tarilishi insonni intellektual va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashni nazarda tutgan holda, oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari sifatida, talabalarning fanlar asoslari bo'yicha mustahkam bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarni belgilab berdi.

Oliy ta'limda o'rgatilayotgan har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Asosan amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan raqamli axborot texnologiyalari nining ham o'z maqsad, vazifalari bo'lib, talabalardnini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad raqamli texnologiya vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari talabalarning uz mutaxassisliklariga ijodiy yondashishi ularning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, talabalarda ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir. Shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishi oliy ta'limda kasbiy ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. Oliy dargohlarining fan dasturlari mazmuni bo'lajak mutaxassislariga kasbi bo'yicha bilimlar berish, mutaxassislik faoliyat sirlarini o'rgatish va talabalarda ko'nikma hosil qilishga qaratilgan. Shuni hisobga olgan holda mahorat va ijodkorlik haqidagi tushunchalarni esga olib ketish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maxorat– bu ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan, shaxsning shaxsiy xususiyatlari kombinatsiyasidir. Mahorat haqida gapirganimizda harqanday soha mutaxassislarini tayyorlashda pedagogning roli pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog asosiy o'rinni egallashi pedagogik mahorat tushunchasiga aloxida etibor berish zaruriyatini yaratadi. "Xozzirgi zamon pedagogik kompetentlikga ega mutaxassis bu – o'z kasbining mohir ustasi raqamli texnologiya vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalariga ega bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis'dir.

Globalashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan hayotimizga kirib kelayotgan bir davrda, o'z bilimi, kuchi, imkoniyatlariga tayanadigan, raqamli va axborot texnologiyalar

vositasida o'z sohasida ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etgan holda talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantira oladigan, jamiyat, davlat manfaatlarini o'z manfaatlar bilan uyg'un holda ko'radigan etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash zarurligi, mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida mustaqil, ijodiy fikrlovchi, zamonaviy fantexnika va uning ishlash texnologiyasini mukammal egallagan, tadbirkor mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'limi muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Ushbu vazifalarni bajarish va ijodiy natijaga erishishda 2 ta muxim vazifani ro'l tutadi.

1 Texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirishi.

2. Raqamli texnologiyalar vasitalari.

Ushbu 2 ta vazifadan 1 chisini texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirishi ni o'rganib chiqamiz va taxlil qilamiz.

1.1. XX asrning 40-yillari oxirlarida rossiyalik olim Genrix Saulovich Altshuller o'z olidiga texnikada yangi ixtirolarni qanday qilib maqsadli yaratish mumkin, degan muammoni qo'ydi. Ta'kidlash kerakki, u paytgacha texnikadagi mutlaq hamma ixtirolar, shu bilan birga fan va sanaddagi kashfiyotlar amal va xatolar yo'li bilan qilinardi.

Raqamli va axborot texnologiyalar vositalari ijodkorlik faoliyatining ilmiy asoslangan texnologiyalari yo'q edi. Bu muammoni echish uchun Altshuller texnik ixtirolarning patent fondini tahlil qildi, bu jarayonda texnikaning rivojlanish qonuniyatlarini ochdi va 60-yillarning boshlarida u ixtirochilik masalalarini echish algoritmining birinchi modifikatsiyasini yaratdi. Shu paytdan boshlab Genrix Saulovich injenerlar va hamma xohlovchilar uchun tinglovchilarni texnik masalalarni echish uchun algoritmini qo'llashga o'rgatadigan o'quv seminarlari o'tkaza boshladi, parallel holda uni mukammallashtirish ishlarini davom ettirdi. Bu tadqiqotlar natijasida Altshuller texnikaning rivojlanish qonunlarini shakllantiradi. Shu tarzda ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi (TRIZ) tug'iladi.

Seminarlarda tinglovchilarni o'qitish Altshuller oldiga yangi muammoni qo'ydi – nimaga tinglovchilarning katta qismi ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi (TRIZ)ni o'zlashtirgandan keyin ham yangi texnik ixtirolarini yaratmaydilar. Bu muammoni echish uchun Altshuller ijodkorlik faoliyati umumiy qonuniyatlarini ochish maqsadida yirik yaratuvchilarning biografialari to'g'risida adabiyotlarni tahlil qildi, ularni bilish ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi (TRIZ)ni o'qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Uning omadi keladi va natijada ijodkor shaxs xislatlari va hayotiy strategiyalari to'g'risida ta'limot yaratadi. G.S.Altshuller qilgan

xulosa o'zining oddiyligi va shu bilan birga murakkabligi: huddi sanhat, matematika va fizika qonunlari kabi ijodkorlik texnologiyalarini har kim egallashi mumkin, butun hayoti davomida ijodkor shaxs xislatlarini ozchilik o'zida tarbiyalashi mumkin va faqat ayrimlarigina o'z hayotini ijodkor shaxs hayotiy strategiyasi qonuniyatlariga muvofiq yashashlari mumkin. 80- yillar o'rtalarida Altshullerning izdoshlari ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi (TRIZ) elementlarini sanhatda, fanda, pedagogikada, psixologiyada, meditsina va boshqa yo'nalishlarda qo'llay boshladilar. Natijada kasbiy faoliyatning yangi yo'nalishlari: triz + pedagogika, triz + biznes, triz + sanhat, triz + tibbiyot yuzaga keldi. Bu yo'nalishlardagi ishlar ko'p sonli nashrlarda aks ettirilgan jiddiy ilmiy natijalar olib keldi. Hozirgi vaqtda TRIZ muvaffaqiyatli rivojlanayapti, Xalqaro ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi (TRIZ) assotsiatsiyasi yaratildi, G.S.Altshuller uning prezidenti hisoblanadi. MDHning ko'pgina yirik shaharlarida va qator boshqa davlatlarda ixtirochilik masalalarini echish nazariyasi (TRIZ) markazlari va maktablari faoliyat olib bormoqda.

Shu bilan birga ijodkorlik asosida ta'lim berish ham rivojlanayapti. Ijodkorlik jarayonida mantiq va intuitsiyaning har xil ahamiyatga ega bo'lishini frantsuz olimi A.Puankare ko'rsatib o'tgan edi. Xususan, u "Fanning o'zida intuitsiya, agar bir qancha ustunliklarga ega bo'lganligini hisobga olinmasa, analiz doimo isbotning yakkayu yagona qonuniy quroli bo'lishiga intilib borayotgan bir davrda ham u ixtiro qilishda asosiy qurol bo'lib qolaveradi" - deb yozadi. Ijodkorlikni amalga oshirish davrlari va uning bosqichlari to'g'risida boshqa olimlar ham bir necha bor o'z fikrlarini bildirganlar. Xususan, bu haqda mashhur fizik M. Born quyidagi fikrlarni larni keltirgan: Men fandagi analitik holda oldindan aytilgan fikrlarni kundalik ishlarimizdan keskin farq qilishini ko'rmayapman. Ayrim kriteriyalar bo'yicha ko'rsatilgan obraz to'liq hisoblanib, unga xarakterli bo'lgan barcha xususiyatlarga egaligini biz kundalik hayotimizda hisobga olib boramiz. Biroq sintetik jihatdan oldindan aytish qisman ma'lum bo'lgan hodisaning real obrazi o'zining haqiqiyligidan farq qiladi, degan gipotetik taxminga asoslanadi. Agar u tajribada tasdiqlansa, uning asosida qonuniy hisoblangan gipoteza yotgan bo'lsa-da, oldindan aytish yangi bilim beradi. Lekin uning muvaffaqiyati intuitsiyaga juda bog'liqdir". M.Born o'z fikrini ikki tipdagi ixtiroga oid tarixiy misollar bilan: ulardan biri mavjud nazariyani mantiqiy analiz qilish bilan amalga oshiradi, boshqasi esa, shu kunga qadar aloqasiz bo'lgan tajribalarning o'zaro bog'liqligi mavjud ekanligi haqidagi muammolarni yangi nazariya yaratish bilan tushuntiradi.

Birinchisiga, Adams va unga aloqasiz holda Lever'elarning boshqa planetalar harakatida yuz bergan bir oz o'zgarishlar asosida aytilgan nazariyasiga muvofiq, Galiley tomonidan Neptun planetasining ochilishi kiradi. M.Borning aytishicha, bu erda nazariya rivojlanmadi: "Bu matematika san'ati va toqatining ulkan siljishi, shuningdek, natijalarga bo'lgan ishonch edi. Biroq ularni e'tirof etmaganda ham, bu hol nazariyaning dunyoqarashini kengaytirgani yo'q; bu ma'lum bo'lgan Nyuton mexanikasining qo'llanilishini analitik jihatdan oldindan aytish edi".

Ikkinchi tip ixtiroga A.Eynshteyn tomonidan aytilgan "Quyosh yaqinida yorug'likning chetlanishi" kiradi. Bu inert va gravitatsion massaning proporsionalligi haqidagi muhim fakti sezish va M.Borning ta'biricha, «tajriba natijalarining uzun zanjiridagi gigant sintez», deb atalgan yangi nazariyaning yaratilishini talab qiladi.

Raqamli texnologiya vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirishda va uni texnologiya sifatida qo'llashda pedagog xam talaba xam bilimlarni to'g'ri idrok etishlari, anglashlari, eslab qolishlari va amalda ijodiy qo'llashlari, zarur ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun didaktik prinsiplar va o'rganiladigan materialning xarakteriga muvofiq eng samarali metodlaridan foydalanishi kerak. Ma'lumki, ta'lim metodining turli klassifikatsiyasi mavjuddir. Talabalarga Aniq va tabiiy fanlardan bilimlarni berishda talabalarning texnik ijodkorligi amaliyoti uchun eng ma'quli o'zaro bog'liq ikkita jarayon - pedagogning rahbarlik faoliyati va talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati yaqqol namoyon bo'ladigan - pedagog va talabalar ishining usullari bo'yicha beriladigan metodlar klassifikatsiyasidir. Bu klassifikatsiya o'quvchilarning mehnatga tayyorlanishi va unumli mehnatida asosiy o'rinni egallaydi.

Ijodiy faoliyat metodlarining ana shunday klassifikatsiyasi sifatida quyidagilar qabul qilinishi mumkin: muammoli ta'lim metodlari - o'quv materialini muammoli bayon etish, izlanish suhbatlari, tadqiqot metodi; og'zaki metodlar - ijodiy suhbat; ko'rsatmalilik metodlari - ratsionalizatorlik faoliyatini kuzatish, turli ijodiy ishlarni namoyish qilish; amaliy ish metodlari - o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlari, texnik adabiyotlar va spravochniklar bilan ishlash; nazorat qilish metodlari - ijodiy topshiriqlarni tekshirish, texnik masalalarni hal etish va ularni nazorat qilish. Bunda pedagogning vazifasi har bir amaliy mashg'ulotda texnik ijodkorlikning turli metodlarini uyg'unlashtirib, o'quvchilar o'quv materialini chuqur o'zlashtirishini ta'minlashdan iboratdir.

Texnik ijodkorlikning turli metodlari va didaktik usullari o'quv materialining mazmuniga va mashg'ulotda hal qilinadigan didaktik hamda tarbiyaviy vazifalarga

qarab har xil yusuinda qo'shib va o'zaro bog'lab qo'llanadi. Talabalarni ijodiy faoliyatga jalb etish bo'yicha asosiy zamonaviy raqamli texnik, texnologik, psixologik pedagogik talablarni bajarish bilan birga bunday faoliyatning mazmuniga qo'yilgan maqsadga va metodlarni tanlash ham katta ahamiyatga ega. Hozir qator samarador metodlar aniqlangan, ularga quyidagilar kiradi: raqamli texnologiyalarni qo'llab modellashtirish; raqamli texnologiyalarni qo'llab manipulyativ konstruktsiyalash; raqamli texnologiyalarni qo'llab ma'lumotlari qisqartirilgan texnik xujjatlarni qo'llash; ijodiy masalalarni hal qilish; ijodiy topshiriqlarni raqamli texnologiyalarni qo'llab bajarish; ilgari tayyorlangan konstruktsiyalarni raqamli texnologiyalarni qo'llab o'zlashtirib, raqamli texnologiyalarga oid texnik vositalar (shu jumladan trenajerlar) dan foydalanib kam-ko'stlarini tuzatish kabilar. Ana shu metodlardan muayyan tartibda foydalanish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish ularda texnik sohadagi mehnatga qiziqish uyg'otish imkonini beradi.

Ijodkorlik masalalarini echishning tahliliy metodida muammo echimini topish uchun uning matematik modelini raqamli texnologiyalar orqali qurish ko'zda tutiladi. Bu metodda echim aniqligi ob'ekt yoki jarayon ko'rsatkichlarining o'rganish uchun ishlab chiqilgan model ko'rsatkichlariga mutanosiblik darajasi bilan belgilanadi, ijodkorlik masalalarini tadqiq qilishning keltirilgan metodlarini talabalar faoliyatiga moslash uchun ularni amalga oshirish qadamlarini birmuncha soddalashtirish hamda subektiv ixtirolardan foydalanish uchun qo'llashda ikkala guruhga tegishli metodlardan iborat umumiy majmua ishlab chiqish talab etiladi.

2. Raqamli texnologiyalar vasitalari.

Ushbu 2 ta vazifadan 2 chisini ni "Raqamli texnologiyalar vasitasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish jarayonini o'rganib chiqamiz va taxlil qilamiz.

Ushbu maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalar vasitasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish jarayonini o'rganishdir. Maqsad quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

1. Axborot kompetentligini aniqlash: Talabalarning raqamli axborot kompetentligi tushunchasini aniqlash, uning tarkibiy qismlarini belgilash va zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini tahlil qilish.

2. Raqamli ta'lim texnologiyalarini o'rganish: Raqamli ta'lim texnologiyalarining xilmaxilligini va ularning ta'lim jarayonidagi rolini o'rganish. Ushbu texnologiyalarning axborot kompetentligini oshirishdagi samaradorligini baholash.

3. Innovatsion usullarni aniqlash: Talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda samarali bo'lgan innovatsion ta'lim usullarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash yo'llarini ko'rsatish.

4. Tahlil va baholash: Raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonida joriy etilishi natijasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish darajasini tahlil qilish va baholash.

Takliflar berish: Olingan natijalar asosida ta'lim muassasalariga talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Maqola oxirida, raqamli ta'lim texnologiyalarining talabalarning axborot kompetentligini oshirishda qanday yangi imkoniyatlar yaratishi mumkinligi haqida fikrlar bildiriladi.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar tahlili, mavjud nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida amalga oshirildi. Adabiyotlar tahlili quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

Raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'limdagi roli: Ko'plab tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonini isloh qilish va zamonaviy talabalarning ehtiyojlariga javob berishda ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, Anderson (2016) raqamli ta'lim platformalarining o'qitish va o'rganish jarayonidagi muhim o'rni, interaktiv muhit yaratishdagi roli va talabalar o'rtasida jamoaviy ishni rag'batlantirishini ko'rsatadi[1].

Axborot kompetentligini rivojlantirish: Axborot kompetentligi raqamli ta'lim jarayonida mustaqil o'rganish, axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi turli tadqiqotlarda (misol uchun, Martin, 2017)[2] talabalarning muvaffaqiyati va ularning kasbiy tayyorgarliklarida muhim ahamiyatga ega ekani ko'rsatilgan.

Innovatsion ta'lim usullari: Flipped learning, gamification va blended learning kabi innovatsion ta'lim usullari talabalarni motivatsiya va faol ishtirok etishga undaydi. Smith va Jones (2018) o'z tadqiqotlarida[3] bu usullar yordamida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishni ko'rsatdilar. Ular shuningdek, bunday yondashuvlar talabalar o'rtasida axborot kompetentligini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlashadi.

Muammolar va qiyinchiliklar: Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda yuzaga keladigan muammolar, masalan, texnologiyalarga qaramlik va ular bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda o'quvchilarning axborotni to'g'ri baholay olish ko'nikmalarining yetishmasligi (Khan, 2019)[4] muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotlar, raqamli ta'lim jarayonida o'qituvchilar va ta'lim muassasalari tomonidan e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlarni ko'rsatadi.

Kelajak istiqbollari: Raqamli ta'lim texnologiyalarining o'sishi, ularning ta'lim tizimidagi roli va ahamiyatining oshishi kutilmoqda. Yang va Yang (2020) tadqiqotlarida [5], raqamli texnologiyalar asosidagi o'quv jarayonlarining yangi imkoniyatlar yaratishi va talabalarning tayyorgarligini oshirishdagi o'rni ta'kidlanadi. Ushbu adabiyotlar tahlili raqamli ta'lim texnologiyalarining axborot kompetentligini rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Olingan natijalar, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida integratsiyasi va ularni amaliyotda qo'llash orqali talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va ularning axborot kompetentligini oshirishda samarali yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiya vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini o'rganish uchun quyidagi materiallar va metodlar qo'llanildi:

Materiallar:

- Adabiyotlar: Tadqiqotda raqamli texnologiya vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va maqolalar o'rganildi. Ushbu materiallar talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish texnologiyalari va ularning samaradorligini baholashda asos bo'lib xizmat qildi.

- Tadqiqotlar: Mavzu bo'yicha ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Bu tadqiqotlar, odatda, raqamli texnologiya vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari samaradorligini oshirishni o'z ichiga oladi.

Metodlar:

- Kvalitativ tadqiqot metodlari: Talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi raqamli texnologiyalarining o'rni haqida fikr va mulohazalarni o'rganish uchun intervyu va so'rovnoma usullari qo'llanildi. Bu metodlar orqali talabalarning raqamli vositalardan qanday foydalanishi, ularning ta'lim jarayonidagi roli va ta'siri o'rganildi.

- Kvantitativ tadqiqot metodlari: Talabalarning axborot kompetentligini baholash uchun so'rovnoma orqali statistik ma'lumotlar to'plandi. Ushbu ma'lumotlar raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashda foydalanildi.

- Tahlil usullari: Olingan ma'lumotlar sifatida o'rganilgan materiallar, intervyu va so'rovnoma natijalari tahlil qilinib, raqamli ta'lim texnologiyalarining talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishdagi samaradorligi va o'zaro aloqasi o'rganildi.

Ushbu metodlar va materiallar yordamida tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash, axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rnini aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari, raqamli ta'lim texnologiyalarining talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishdagi o'rnini haqida muhim ma'lumotlar taqdim etdi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar talabalarning axborotga bo'lgan munosabatini va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini o'zgartiradi. Raqamli texnologiyalarning ta'siri: Tadqiqot davomida aniqlanganidek, raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarga axborot izlash va tahlil qilish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Masalan, onlayn kutubxonalar va resurslar yordamida talabalar turli manbalarni tezda topa olishadi, bu esa ularda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, videolarlar, interaktiv dasturlar va boshqa multimedia vositalari ta'lim jarayonini yanada jonlantirib, talabalarni o'zlashtirishga ko'proq jalb qiladi.

Innovatsion ta'lim usullari: Raqamli texnologiyalarni qo'llashning boshqa bir muhim jihati – bu innovatsion ta'lim usullarining joriy etilishi. Masalan, flipped learning (tashqi dars) yoki gamification (o'yinlashtirish) kabi usullar talabalar o'rtasida jamoaviy muhokama va faol ishtirok etishni rag'batlantiradi. Bu usullar talabalarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va axborot manbalaridan samarali foydalanishga undaydi.

Ta'lim muassasalaridagi amaliyot: Shuningdek, tadqiqotda raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim muassasalaridagi joriy etilishi va qo'llanilishi natijalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari raqamli platformalar va vositalardan foydalangan holda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishi, hamda o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Challengerlar va muammolar: Biroq, raqamli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi bilan bog'liq ba'zi muammolar ham mavjud. Talabalar ba'zi hollarda texnologiyalarga qaram bo'lib qolishlari yoki ularni to'g'ri va samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuningdek, barcha talabalar uchun barqaror internet aloqasi va kerakli qurilmalarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Natijada, raqamli ta'lim texnologiyalarining axborot kompetentligini rivojlantirishdagi roli juda katta, ammo bularni amalga oshirishda ta'lim muassasalari va o'qituvchilar tomonidan ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Kelajakda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rnini va ahamiyatini yanada oshishi kutilmoqda, bu esa ta'lim

jarayonini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tadqiqot raqamli ta'lim texnologiyalarining talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni va samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Olingan natijalar quyidagi asosiy xulosalarni taklif etadi:

1. Axborot kompetentligining oshishi: Raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarga axborotni izlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Talabalar onlayn kutubxonalar, resurslar va multimedia vositalari yordamida o'z bilimlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
2. Interaktiv ta'lim jarayoni: Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli holga keltiradi. Innovatsion usullar, masalan, flipped learning va gamification, talabalar o'rtasida faol ishtirokni rag'batlantiradi, bu esa o'qitish jarayonini yanada samarali qiladi.
3. Mustaqil o'rganish ko'nikmalari: Talabalar raqamli texnologiyalar yordamida mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim tajribalarga ega bo'ladilar. Ushbu ko'nikmalar ularni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda, shuningdek, professional hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.
4. Challengerlar va yechimlar: Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, jumladan, texnologiyalarga qaramlik va ularni to'g'ri foydalanish qiyinchiliklari, ta'lim muassasalari va o'qituvchilar tomonidan hal qilinishi lozim. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining sifatini oshirish va talabalar uchun yanada samarali o'quv muhitini yaratish imkonini beradi.

Natijada, raqamli ta'lim texnologiyalarining axborot kompetentligini rivojlantirishdagi roli katta ahamiyatga ega. Ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va samarali qo'llanilishi talabalar uchun yangi imkoniyatlar va yutuqlarni ochadi. Kelajakda raqamli ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi yanada muhim bo'lib qoladi, shuning uchun ta'lim muassasalari va o'qituvchilar o'z faoliyatlarini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratishlari zarur. Ushbu tadqiqot raqamli ta'lim texnologiyalarining talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Raqamli ta'lim texnologiyalarining samaradorligi: Raqamli texnologiyalar, jumladan onlayn resurslar, multimedia materiallar va interaktiv dasturlar, talabalarga axborotni izlash va tahlil qilishda yordam beradi. Bu esa ularning axborot kompetentligini oshirishga imkon yaratadi.

2. Innovatsion ta'lim usullarining qo'llanilishi: Talabalar o'rtasida faol ishtirokni rag'batlantirish va o'quv jarayonini qiziqarli qilish uchun innovatsion ta'lim usullari, masalan, flipped learning va gamification, muvaffaqiyatli qo'llanilishi lozim. Bu usullar talabalarni mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga undaydi.

3. Muammolar va yechimlar: Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar, masalan, texnologiyalarga qaramlik, ta'lim muassasalari va o'qituvchilar tomonidan hal qilinishi zarur. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining sifatini oshirish va talabalar uchun yanada samarali o'quv muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

4. Kelajak istiqbollari: Raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni kelajakda yanada muhim bo'lib qoladi. Ta'lim muassasalari raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda, ularning axborot kompetentligini rivojlantirishda va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini oshirishda katta imkoniyatlarga ega.

Umuman olganda, raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularni ta'lim jarayonida to'g'ri va samarali qo'llash orqali o'quv muhitini yaxshilash, talabalarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini oshirish va zamonaviy ta'lim talablari darajasida tayyorlash mumkin. Tadqiqot natijalari, shuningdek, ta'lim sohasidagi innovatsion yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi, bu esa kelajakda raqamli ta'lim texnologiyalaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bizning fikrimizga ko'ra, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda darsda raqamli texnologiyalar vositasida turli qiziqarli masalalarning o'rinli qo'llanilishi raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Nazarov, I., Hasanov, A., Mirjamolova, F., Khaldarov, H., & Alibekov, S. (2021).

Modern educational technologies. Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias, 11(3), 245-252.

2. Khasanov A.A., Khasanova S.S. Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts // American Journal of Pedagogical and Educational Research 10 (2023): 185-190.

3. Statistical analysis and forecasting of cotton yield dynamics in Kashkadarya region of Republic of Uzbekistan. Kudrat Ruzmetov, Akhtamjon Faiziev, Salakhiddin

Murodov, Odina Kurbonbekova. E3S Web of Conf. 389 03080 (2023) DOI:

10.1051/e3sconf/202338903080 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338903080>

4. Talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 53–56. Retrieved from. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4380>

5. Muradov, S. D. (2023). Talabalarning texnik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 53–56. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4380>

6. Muradov S. D. TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 53-56.

7. Muradov, Salaxiddin Djumanazarovich. "TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA." *Educational Research in Universal Sciences* 2.14 (2023): 53-56.

8. Muradov, S. D. (2023). TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 53-56.

9. Anderson, T. (2016). *The Theory and Practice of Online Learning*. Athabasca University Press.

10. Khojayeva G. A. O 'Quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 879-882.

11. Khojayeva G. A. Development of heuristic ability // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 441-443.."
Educational Research Review, 15(3), 95-112.

**«TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» VOLUME-3,
ISSUE-03 (31-MART)
MUNDARIJA**

1	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRUKTURAVIY-MAZMUNLI MODELI Soatova Shoxista Abdumusayevna	6-13
2	PAST BOSIMLI OQAVA SUVLARDA ISHLOVCHI MIKRO GESLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li	14-17
3	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОЛИКУЛЬТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ Киреева Эльвина Фларитовна, Портнова Мария, Фатхуллаева Мадина	18-23
4	FISKAL SIYOSAT: BYUDJET TAQCHILLIGI VA DAVLAT QARZI MUAMMOLARI Jo'rayeva Lola Abdugabbarovna, Rashidova Sevinch O'rol Qizi, Murtozayeva Mavjuda Muhiddin qizi, Esonova Ozoda Iskandar qizi, Nurov Nodirbek Nazirqul o'g'li, Xamdamov Sanjar Xusniddinovich	24-30
5	WEB ILOVALARNI LOYIHALASH: TAMOYILLAR, MUAMMOLAR VA ILG'OR TAJRIBALAR Sadritdinova Dinora A'zamjon qizi	31-37
6	O'ZBEKISTONDA MAHALLA YETAKCHILARINING IQTISODIY RIVOJLANISH VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI ROLI Jo'rayeva Lola, Abrayqulov Behro'z Dilshod o'g'li, Donayev Davron Komil o'g'li, Eshboyev Samandar Juma o'g'li, Hasanov Bekzod Abdurazzoq o'g'li, Jumayev Axrorjon Mo'ydinjon o'g'li	38-41
7	SOLIQ-BYUDJET SIYOSATI. SANOAT SIYTOSATI Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna, Qahramonova Zarnigor Xotamjon qizi, G'aniyeva Elenur Xolboyevna, Bobanazarova Xilola Xusan qizi	42-46
8	YENGIL SANOATNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI Jo'rayeva Lola, Shoqosimova Aziza, Ko'chkinova Gulbadan, Maqsudaliyeva Surayyo, Ismoilova Sevinch	47-50
9	VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA KUCHLI PSIXOTROP VOSITALARGA QARAMLIKNING ORTISHI Jumanazarova Aziza Hurmat qizi.	51-54
10	КЛАССИФИКАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ РАБОТ ПО УРОВНЮ СЛОЖНОСТИ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ	55-61

	СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ. Хабилова Зебинисо Содикжон кизи, Хамедова Нилуфар Азимовна	
11	AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARI VA NUTQ RIVOJLANISHI Nosirova Umida Abdusattarovna	62-65
12	PEDAGOGLARDA EMPATIYA HISSINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Sayitova Umida Hikmatillo qizi, Pulatova Gulsanam G`ayrat qizi	66-68
13	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN STUDENTS Sayitova Umida Hikmatillo kizi, Yusupova Rakhila Nematullayevna	69-73
14	PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL MOTIVES IN STUDENTS Sayitova Umida Hikmatillo kizi, Alimov Ulmasjon Ismat o'gli	74-79
15	O'SMIRLARDA AGRESSIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Omonova Muxlisa Do'snazar qizi, Sotvoldiyev Shoxro'zbek Nigmatulla o'g'li	80-85
16	ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ К ЗДОРОВЬЮ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Саидасрорхожаева Шохсанамхон Зокиржон кизи:, Уразова Марина Батыровна	86-90
17	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK VA YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA SOG'LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH Saidasrorxo'jaeva Shohsanam Zakirovna	91-96
18	RAQAMLI TEXNOLOGIYA VOSITASIDA TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI Muradov Salaxiddin Djumanazarovich, Jumanazarov Sardor	97-108
	MUNDARIJA	109-110